

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**ORIBBOYEVA DILAFRUZ DADAMIRZAYEVNA**

**PEDAGOGIKA YO‘NALISHI TALABALARINING MAKTAB MUHITIDA  
BULLINGNING OLDINI OLISH TEXNOLOGIYASIGA OID  
KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 -Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2025**

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of pedagogical sciences (DSc)**

**Oribboyeva Dilafruz Dadamirzayevna**

Pedagogika yo‘nalishi talabalarining maktab muhitida bullingning oldini olish texnologiyasiga oid kompetensiyalarini takomillashtirish..... 3

**Ориббоева Дилафруз Дадамирзаевна**

Совершенствование компетенций студентов педагогического направления по технологии предупреждения буллинга в школьной среде. .... 35

**Oribboyeva Dilafruz Dadamirzayevna**

Improving the competencies of students of pedagogy in the technology of bullying prevention in the school environment ..... 71

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published work..... 77

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**ORIBBOYEVA DILAFRUZ DADAMIRZAYEVNA**

**PEDAGOGIKA YO‘NALISHI TALABALARINING MAKTAB MUHITIDA  
BULLINGNING OLDINI OLISH TEXNOLOGIYASIGA OID  
KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 -Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.DSc/Ped1254 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.namspi.uz](http://www.namspi.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Abdullayev Safibullo Xabibullayevich**  
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdullayeva Barno Sayfuddinovna**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Azimova Ziyoda Ergashevna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Xanbabayev Xakimjon Ikromovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Chirchiq davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «23» 12 soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko'chasi 316-uy. Tel.: (998) 69 211-11-69; faks: (998) 69 211-11-69; e-mail: [info@namspi.uz](mailto:info@namspi.uz).)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (083 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko'chasi 316-uy. Tel.: (998) 69 211-11-69; faks: (998) 69 211-11-69)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «9» 12 kuni tarqatildi.  
(2025-yil «9» 12 dagi 25 - raqamli reyestr bayonnomasi).



*[Signature]*  
**M.R. Qodirxonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, k.f.d., dotsent

*[Signature]*  
**S.X. Mutalov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
(PhD), dotsent

*[Signature]*  
**X.Y. Najmiddinova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar  
raisi, p.f.d., professor

## KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, milliy ta'lim strategiyalari va xalqaro tashkilotlar tavsiyalariga ko'ra, maktab muhitida yuzaga keladigan psixologik bosim, ijtimoiy ajratish, tahqirlash, kiber zo'rvonlik kabi bulling holatlari nafaqat o'quvchilarning psixik sog'lig'i va o'zlashtirish darajasiga, balki umuman jamiyatning axloqiy iqlimiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi (Olweus, Smith, UNESCO) oqibatida 2019-yilda UNESKOning 193 a'zo davlatlari ishtirok etgan yig'ilishda noyabr oyining birinchi payshanbasini «Maktabda va internetda xalqaro zo'rvonlikka qarshi kurashish kuni» sifatida nishonlash haqidagi qaror qabul qilindi<sup>1</sup>. Ushbu tadbirni ta'lim tizimidagi zo'rvonlikning oldini olish va to'xtatish maqsadida 2020-yildan boshlab har yili o'tkazilishi belgilangan bo'lib xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida bullingga qarshi yondashuvlar mustahkam qonunchilik, metodik dasturlar, psixologik xizmatlar, raqamli xavfsizlikni ta'minlash kabi ko'p qirrali tadbirlar asosida amalga oshirilmoqda. Ilg'or tajribalarni chuqur o'rganish hamda milliy ta'lim tizimiga moslashtirish orqali ta'lim subyektlarining psixologik tinchligi va xotirjamligi, farovonligi va barqarorligini ta'minlash hamda pedagogik jarayonni zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bois, guruh va turli ijtimoiy guruhlar vakillari o'rtasida sodir bo'ladigan bulling hodisasini oldini olish va innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda ta'lim jarayonida axloqiy tarbiyaning o'rni va ahamiyati masalasiga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar keng olib borilmoqda. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar axloqiy qadriyatlarni takomillashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Bolalarga nisbatan o'tkaziladigan bulling hodisasi bo'yicha UNESKO ma'ruzasida keltirilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra har uchtdan bir o'quvchi har xil turdagi zo'rvonlikka uchrar ekanlar<sup>2</sup>. O'smirlar orasidagi bulling hodisasining sabablari va oqibatlarini o'rganish muhimligiga qaramay, pedagogika fanlari majmuasida ushbu muammoni hal qilishning yagona yondashuvi hali ham mavjud emasligi sababli bu salbiy hodisaning tarqalishini tizimli ravishda oldini olishga imkon beruvchi yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Ta'lim tizimida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish orqali yoshlar o'rtasida bullingni oldini olish hamda pedagogik jarayonni ilmiy asosda takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish va ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev raisligida 2022-yil 28-yanvar kuni maktab ta'limini rivojlantirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishida «Maktab ta'limini rivojlantirish

<sup>1</sup> <https://iite.unesco.org/ru/news/den-protiv-nasiliya-kiberbulling-unesco-vk/>

<sup>2</sup> <https://www.unicef.org/uzbekistan/>

bo'yicha ustuvor vazifalar» belgilab berildi<sup>3</sup>.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining<sup>4</sup> 48-moddasi 2-satr boshida «Ta'lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan jismoniy va (yoki) ruhiy zo'ravonlik ishlatmasligi va ularning o'z majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilmasligi» qayd etib o'tilgan. Shu bois, milliy an'analar va xalq pedagogikasi tamoyillarini chuqur o'rganish bilan bir qatorda, ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish va joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda, pedagogika yo'nalishi talabalarini maktab muhitida bullingni oldini olish texnologiyasiga oid kompetensiyalarini takomillashtirish dolzarb ilmiy masala sifatida ko'rib chiqilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini takomillashtirish va talabalarni maktab muhitida bullingni oldini olish texnologiyasiga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son «Ta'lim to'g'risida»gi hamda 2024-yil 14-noyabrdagi O'RQ-996-son «Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida»gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son, «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan «Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» farmonlari ushbu sohadagi ustuvor yo'nalishlarni belgilab bergan. Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirish doirasida olib borilayotgan tadqiqotlar talabalarini maktab muhitida bullingni oldini olish texnologiyasiga oid kompetensiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>5</sup>.**

<sup>3</sup> <https://yuz.uz/news/maktab-talimini-rivojlantirish-boyicha-ustuvor-vazifalar-belgilandi>

<sup>4</sup> <https://lex.uz/docs/-5013007>

<sup>5</sup> Диссертация мавзусига доир хорижий тадқиқотлар таҳлили ЮНЕСКО ташкилоти (<https://iite.unesco.org/ru/news/den-protiv-nasiliya-kiberbulling-unesco-vk/>), Society for Health Psychology of American Psychological Association (URL: <https://societyforhealthpsychology.org>) маълумотлари асосида амалга оширилди. Хавфсизлик психологиясига доир нашрлар таҳлили етакчи референт даврий нашрлар базаларида амалга оширилган, шу жумладан: Психологик нашрлар портали (URL: <http://psyjournals.ru>), Америка психологик ассоциациясининг PsycINFO психология бўйича маълумотлар базаси (URL: <https://www.apa.org/pubs/databases/psycinfo/index.aspx>), АҚШ Миллий тиббиёт кутубхонасининг матн маълумотлари базаси (URL: <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pubmed>), шунингдек, Европа жамоатчилигининг саломатлик психологияси даврий нашрларида жойлашган (URL: <http://www.ehps.net>).

Maktabdagi xavfsiz muhitni bolalar shaxsini rivojlantirish omili sifatida o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari, jumladan, Garvard universiteti (AQSh), Vena universiteti (Avstriya), Kordova universiteti (Argentina), Viskonsin-Milouki universiteti (AQSh), Sankt-Peterburg Davlat universiteti (Rossiya), Rossiya fanlar akademiyasi sotsiologiya instituti (Rossiya), Kaliforniya universiteti (AQSh), Lids universiteti (Buyuk Britaniya), Kent universiteti (Buyuk Britaniya), Sheffild universiteti (Buyuk Britaniya), Groningen universiteti (Niderlandiya) hamda Amerika psixologiya uyushmasi (AQSh) tomonidan olib borilmoqda.

Ta'lim sharoitida zo'ravonlik va agressiya bulling ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin. Maktablardagi bulling hamda viktimizatsiya (qurbonga aylantirish jarayoni va natijasi) bolalarning psixologik, ijtimoiy va hatto jismoniy rivojlanishlariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida tan olingan. Ye. Roland (1989) zo'ravonlar (ta'qib qiluvchilar, bezorilar) va ularning qurbonlari hamda guvohlarini (kuzatuvchilarini) o'z ichiga qamrab oluvchi ijtimoiy tizim – «bulling tizimi»ni tasvirlab beradi. Tizimning har bir ishtirokchisi mazkur jarayonda o'zining shaxsiy fikri va nuqtayi nazariga ega bo'ladi.

Zamonaviy psixologiyada zo'ravonlik muammosini L.S.Alekseeva, I.A.Bayeva, Ye.V.Burminstrova, Ye.F.Bikovskaya, Ye.V.Grebenkin, N.O.Zinoveva, Ye.B. Laktionova, N.F. Mixaylova, D. Pstrog kabi tadqiqotchilar rivojlantirmoqdalar.

Aksariyat bullingni o'rganish maqsadida olib borilgan tadqiqotlar bu muammoni qisman ko'rib chiqadi va asosan bullingning turlarini tadqiq etgan bo'lib, ayniqsa bullingni yuzaga keltiruvchi omillar va zo'ravonlik jarayonida shaxsning rolga hamda uning xulq-atvoriga e'tibor bermaydi. Shuni ta'kidlash mumkinki, ilmiy adabiyotlarda bullining oldini olishning o'ziga xos usullari, oila, maktab va shaxsning ushbu hodisaning paydo bo'lishiga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatishi haqida yetarlicha gapirilmagan. Ushbu muammoni o'rganish kelajakda o'smirlar o'rtasida bulling holatidagi xatti-harakatlarni kamaytirish uchun xizmat qiladi hamda o'qituvchilar, ijtimoiy xodimlar, psixologlar, ota-onalarning ijtimoiy va kasbiy faoliyatlarida foydalanishlariga imkon beradi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Sharq mutafakkirlari tarbiya va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqida muhim ilmiy-nazariy qarashlar ilgari surgan bo'lib, ularning g'oyalari bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalar tarbiyaning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan. Shuningdek, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Is'hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov singari ma'rifatparvar ziyolilar yosh avlod tarbiyasini milliy o'ziga xoslik, ma'naviy qadriyatlar va zamonaviy ta'lim talablari bilan uyg'unlashtirish zarurligini asoslab bergan.

Mamlakatimizda tarbiyaning falsafiy, pedagogik va sotsiologik jihatlari bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, globallashuv sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning shakllanishi, uni yoshlar ongiga singdirish hamda

innovatsion texnologiyalar orqali rivojlantirish masalalari O‘zbekistonlik olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, maktabdagi xavfsiz muhit bolalar shaxsini rivojlantirish omili N.M.Mullabayeva tomonidan<sup>6</sup>, ta’lim va tarbiyaning ijtimoiy-tarixiy mazmuni va o‘zaro bog‘liqligi E.Yusupov tomonidan, ularning falsafiy va siyosiy jihatlari esa S.Otamuratov, K.Tulenova, B.To‘ychiev, J.Mavlonov, Sh.Paxrutdinov, N.Shermuxeamedova, G.Tulenova, A.S. Achildiyev, Sh.Murodova, A.Tulepov, X.Ochilovlar tomonidan<sup>7</sup>; ma’naviy-axloqiy tarbiyaning pedagogik tadqiqi E.G‘oziyev, A.Zunnunov, U.Mahkamov, F.Jumanova, J.Ravshanov, M.Quronov, I.Daminov, O.Bozorov, Sh.Akramova, Sh.Mardonov, S.Matchonov, O.Musurmanova, M.Mirqosimova, F.A.Shukurov, F.T.Xalimova, N.M.Egamberdiyevlarning tadqiqotlarida yoritilgan<sup>8</sup>.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida esa, I.S. Berdyshev, A.A. Bochaver, K.D. Xlomov, V.N. Butenko, E.N. Volkova, O.L. Glazman, I.S. Kon, S.V. Krivtsova, A.A. Nesterova, M.G. Nechaeva, V.R. Petrosyans, K.A. Shevtsova, L.B.Shnayder<sup>9</sup> va boshqalar tomonidan bullingni tadqiq etish maqsadida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Illarionova bo‘yicha bulling – bu qo‘rqitish, psixologik yoki jismoniy bosim bo‘lib, boshqa odamlarni bo‘ysundirishga yoki ularda qo‘rquv hissini uyg‘otishga qaratilgan tajovuz deya baxolanadi. A. I. Averyanovning fikriga ko‘ra, «bulling» zo‘ravonlikning maxsus turi sifatida bir shaxs (yoki guruh)ning boshqa shaxsga (guruhga) jismoniy hujum qilganida yoki tahdid qilishi natijasida, ikkinchi zaifroq tomonning o‘zini na jismoniy, na ma’naviy jihatdan himoya qila olmasligidir<sup>10</sup>. O. L. Glazmanning bulling bilan bog‘liq ilmiy qarashlarida «Bullingni shaxsga qaratilgan zo‘ravonlik va ta‘qib emas, balki guruh tomonidan ozaro ta‘sir etishning stereotipi bo‘lib, unda odam uzoq vaqt davomida boshqa shaxsdan yoki katta kuchga ega bo‘lgan odamlar guruhidan

---

<sup>6</sup> Mullabaeva N.M. Maktabdagi xavfsiz muhit bolalar shaxsini rivojlantirish omili sifatida: Ped. fan. dokt. (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2022. – 56 b.

<sup>7</sup> Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – Toshkent: Universitet, 1997.; Tulenova K., Tillavoldiyeva M. Milliy tarbiyaning falsafiy masalalari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU 2008; Shermuxeamedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021; Tulenova K. Barkamol yosh avlod – istiqloq tayanchi. – Toshkent: Fan va texnologiya 2004; Tulenova K., Tillavoldiyeva M. Milliy tarbiyaning falsafiy masalalari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU 2008; Achildiyev A.S. Milliy g‘oya va tarbiya – millatlararo munosabatlarni takomillashtirish omili. – Toshkent, 2004; Murodova Sh. Ijtimoiy tarmoq so‘qmoqlari. // Tafakkur, 2013. 4-son, 21-b.; Tulepov A. Internet tahdidlardan himoya. – Toshkent: Movarounnahr, 2015; Ochilov X. Demokratiya niqobidagi tahdid. – Toshkent: Muharir, 2010.

<sup>8</sup> G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2024.; Zunnunov A. Pedagogika tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000.; Mahkamov U., Jumanova F., Ravshanov J. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va boshqarishga tayyorlash // Academic research in educational sciences, 2020. №3. 815-830.; Quronov M. O‘zbekiston umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped. fan dokt. Dis. – Toshkent, 1998. – 316 b. 60.; Mardonov Sh.Q. Yangi ta‘limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. – Toshkent: Fan, 2006.; Matchonov S. Adabiy ta‘lim tizimini texnologiyalashtirish va badiiy-estetik tafakkur muammolari/Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy axborotnomasi. 2020, – №1. – B. 49-53.; Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – B.192.; Ф.Шукуров, Ф.Халимова, М.Миркосимова. Сравнительная характеристика адекватности самооценки, тревожности и типов ВНД у студентов. //Агаджаньяновские чтения, 2020. – С.254-256.

<sup>9</sup> Гришина Татьяна Геннадьевна «Социально-психологическое факторы ролевого поведения подростков в ситуации буллинга» Мытищи -2020

<sup>10</sup> Петросянц Виолетта Рубеновна «Психологическая характеристика старшеклассников, участников буллинга в образовательной среде, и их жизнестойкость» Диссертация на соискании ученой степени кандидата психологических наук Санкт-Петербург 2011

qasddan zarar ko‘radi» deya hisoblaydi<sup>11</sup>.

Xorijda olib borilgan bullingga oid ilmiy izlanishlar tahlilida, A. Crump, P. Eitel, D. Haynie, T.R. Nansel, D. Olweus, M. Overpeck, R.S. Pilla, W.J. Ruan, C. Salmivalli, K. Saylor, P. Scheldt, B. Simons-Morton, K. Yu<sup>12</sup> va boshqalarning tadqiqotlarida o‘smirlarning o‘zaro munosabatlarida bullingning oqibatlari haqidagi qarashlar ilgari surilgan.

Norvegiyalik psixolog Olweus (Olweus) bulling tushunchasini tizimli o‘rgangan va uning kelib chiqish sabablarini yoritgan<sup>13</sup>. Olweus bullingni “Kuchli tomonidan zaif tomonga qaratilgan tizimli tahqirlashi va ta‘qibi” deb ta‘riflaydi. Bulling hodisalarining o‘smirlar ijtimoiylashuvi va shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta‘sirini amerikalik sotsiolog Vorton (Wharton) tahlil qilgan<sup>14</sup>. Kanadalik psixolog Albert Bandura (Bandura) ning ilmiy ishlarida o‘smirlar o‘rtasidagi agressiv xulq-atvorni ijtimoiy-kognitiv nazariya asosida ochib berilgan. Bundan tashqari Finlyandiyalik psixolog Samivelli (Salmivalli) tomonidan bullingning turli ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlari hamda ularning rollarini o‘rganilgan bo‘lsa o‘smirlar jamoasida bullingni oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha psixologik yondashuvlar yuzasidan qiziqarli ilmiy tadqiqotlar Riddling (Riddle) ilmiy izlanishlarida aks etgan<sup>15</sup>. Syuzan P. Limber, Robin M. Kowalski va Patrisiya V. Agatston<sup>16</sup> (AQSh) bullingni verbal tahqirlash, jismoniy tajovuz yoki ijtimoiy izolyatsiya orqali boshqalarga qasddan zarar yetkazish harakati sifatida ta‘riflaydilar, bu holat odatda vaqt o‘tishi bilan qayta takrorlanadi.

Bulling muammolariga bag‘ishlangan qarashlarni zamonaviy xorijiy va Rossiya tadqiqotlarida ko‘plab kuzatish mumkin, biroq aynan maktab muhitida bullingni oldini olish muammosiga doir tadqiqotlar yetarlicha tahlil qilinmaganligini alohida qayd etish lozim. O‘zbekiston sharoitida pedagogika yo‘nalishi talabalarini maktab muhitida bullingni oldini olish texnologiyasiga oid kompetensiyalari holati deyarli o‘rganilmagan. Hozirgi kunda bullingning ko‘payishi uni chuqur va tizimli o‘rganish zaruriyatini ko‘rsatadi. Biroq, maktab va o‘qituvchilar bulling muammosidan qochishi va o‘qituvchilarni maktab o‘quvchilari o‘rtasida vujudga keladigan bulling sabablaridan xabari yo‘qligi bizning e‘tiborimizni tortdi. Odatda o‘qituvchilar muammoning tarqalish ko‘lamini e‘tirof etmaydilar va qanday qilib bu hodisa bilan kurashishni bilmaydilar (P.Kalliotis, D. Olweus). Shu bois maktab muhitida bullingni oldini olishga ta‘sir etuvchi omillarni atroflicha tahlil qilish, talabalarni maktab muhitida bullingni oldini olish texnologiyasiga oid kompetensiyalarini takomillashtirish ushbu

<sup>11</sup> Глазман О. Л. Психологические особенности участников буллинга // Известия Российского государственного педагогического университета имени А. И. Герцена. 2009. № 105. С. 159–165.

<sup>12</sup> Гришина Татьяна Геннадьевна «Социально-психологические факторы ролевого поведения подростков в ситуации буллинга» Мытищи -2020

<sup>13</sup> Глазман О. Л. Психологические особенности участников буллинга // Известия Российского государственного педагогического университета имени А. И. Герцена. 2009. № 105. С. 159–165.

<sup>14</sup> Бочавер А. А., Хломов К. Д. Буллинг как объект исследований и культурный феномен // Психология. Журнал Высшей школы экономики. 2013. Т. 10. № 3. С. 149–159. URL: <https://cyberleninka.ru/article/v/bulling-kak-obekt-issledovaniy-ikulturnyy-fenomen> (дата обращения: 12.11.2022).

<sup>15</sup> Хломов К. Психология подросткового возраста: проблема буллинга. URL: <https://www.psycholok.ru/lib/poppsy/2017/0724.html> (дата обращения: 12.11.2022).

<sup>16</sup> Петросянц Виолетта Рубеновна «Психологическая характеристика старшеклассников, участников буллинга в образовательной среде, и их жизнестойкость» Диссертация на соискании ученой степени кандидата психологических наук Санкт-Петербург 2011

tadqiqot ishining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining B.M-24 «Pedagogik ta’lim va tarbiya transformatsiyasida fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarning konseptual asoslari» mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** pedagogika yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarning maktab muhitida bullingning oldini olish texnologiyasiga oid kompetensiyalarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

bullingning oldini olishga oid kompetensiyalar mazmunini (tarkibiy komponentlarini) ilmiy adabiyotlar tahlil qilish asosida «Aksil-mazmunli yondashuv» va «shaxsiy identifikatsiya trayektoriyasi» tushunchalarining pedagogik mohiyatini, bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayoniga integratsiyalash imkoniyatlarini aniqlash:

«O‘qituvchi – bosqinchi o‘quvchi», «o‘qituvchi – jabrlanuvchi o‘quvchi», «o‘qituvchi – guvoh o‘quvchi» kabi rolli o‘yinlarning natijasida shakllanadigan refleksiv tajribalarni pedagogik faoliyat mobaynida foydalanish texnologiyalarini ilmiy metodik tahlil qilish;

bo‘lajak pedagoglarning bulling holatlarida tegishli choralarni ko‘ra bilish, vaziyatga o‘z vaqtida va to‘g‘ri aralashish, hamda mojaroni konstruktiv hal etish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish holatini tahlil qilish;

tajriba guruhi talabalarini bilan ishlab chiqilgan trening-dasturi asosida ishlash (formativ bosqich) va uning ta’sirchanligini ta’minlash, nazorat va tajriba guruhlari natijalarini qiyosiy tahlil qilish orqali maxsus dastur samaradorligini statistik jihatdan baholash;

bo‘lajak o‘qituvchilarning maktab muhitida bullingni oldini olish texnologiyasiga oid kompetensiyalarini takomillashtirishga qaratilgan baholash mezonlarining samaradorligini aniqlash, metodik asoslarni joriy etish hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida pedagogika yo‘nalishi talabalarini bullingni oldini olish texnologiyasiga oid kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishning metodik asoslarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, pedagogik tajriba-sinov ishlariga Namangan davlat pedagogika instituti, Andijon davlat pedagogika instituti va Chirchiq davlat pedagogika universitetlarining jami 344 nafar talabalarini jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmetini** bo‘lajak pedagogika o‘qituvchilarining bullingni oldini olish texnologiyasiga oid kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik asoslarini takomillashtirish, ta’limiy va pedagogik mazmuni, shakli, texnologiyasi, amaliy mexanizmlari, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida nazariy (statistik tahlil, qiyosiy tahlil, kompleks yondashuv, tizimli funksional yondashuv), diagnostik (suhbat, so‘rovnomalar, kuzatish, tasniflash, intervyu), matematik va pedagogik eksperiment

(ma'lumotlarni matematik-statistik tahlil qilish, natijalarni grafik tasvirlash, modellashtirish va boshqalar) kabi usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bo'lajak o'qituvchilarning bullingni aniqlash kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik zarurati o'qituvchining sinfdagi yoki maktab jamoasidagi bulling holatlarini turli vignettalar<sup>17</sup> asosida ta'lim jarayonida kognitiv tahlil va integrativ tarkibiylikka aksil-mazmunli yondashuvning shaxsiy identifikatsiya trayektoriyasiga ko'ra aksiologik-motivatsion integratsiyalash orqali asoslangan;

bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ yondashuv kompetensiyasini rivojlantirish bullingning oldini olish jarayonida pedagogning muloqot qilish va psixologik ta'sir o'tkaza olish mahoratidan foydalanishning konseptual asoslari aksiologik yondashuv va kognitiv tahlil asosida talabalarning «o'qituvchi – bosqinchi o'quvchi», «o'qituvchi – jabrlanuvchi o'quvchi», «o'qituvchi – guvoh o'quvchi» kabi rolli o'yinlarni refleksiv talqini orqali ochib berish asosida takomillashtirilgan;

bulling sodir bo'lganda pedagog sifatida tegishli choralarni ko'ra bilish, vaziyatga aralashish va mojaroni hal etish bo'yicha amaliy ko'nikmalarning o'ziga xos jihatlarni aksiologik yondashuv asosida tahlil qilish hamda bu ko'nikmalarni baholash uchun maxsus (bulling turlarini aniqlashga doir) keys-stadi topshiriqlari, «Pedagog aralashuvi» usuli tarbiya tamoyillari, usullari va metodlarining samaradorligiga innovatsion tatbiq etish orqali ochib berilgan;

sinf jamoasida va maktab miqyosida bullingning oldini olish bo'yicha tizimli faoliyatni rejalashtira olish va amalga oshira olishni ta'minlovchi pedagogika o'qituvchisi konsepsiyasi kasbiy mo'ljalning universallik va formativlik tamoyillariga muvofiq didaktik konvergensiya vositasida «Maktabda bullingni oldini olish», «Ota-onalar uchun bulling haqida seminar-trening», «Do'stona sinf muhitini shakllantirish» kompetensiyalarini integrativ shakllantirishni samarali joriy etish asosida ishlab chiqilgan;

bo'lajak pedagoglarning bullingni oldini olishga doir kompetensiyalarining tarkibiy jihatlari pedagogik modeli tarbiya nazariyasining aksiologik asoslari (inson qadri, adolat, mehr-oqibat, hamkorlik, mas'uliyat) va ta'lim jarayonida axloqiy dilemmalarni integratsiya qilish orqali talabalarning shaxsiy mas'uliyatini oshirishga metodik yo'naltirish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari.**

bo'lajak pedagogika o'qituvchilarining bullingni oldini olishga doir kompetensiyalarini rivojlantirish mezon va ko'rsatkichlari aniq belgilandi hamda ularning kasbiy kompetensiyalari va bullingning oldini olishga doir

---

<sup>17</sup> Vignettalar – so'zi ingliz tilida ko'p ma'nolarni o'zida mujassam etadi. Asosan, u kichik tasvir, qisqa hikoya yoki ramziy tasvirni anglatadi. San'at va adabiyotda *vignette* kichik va aniqroq bayon etilgan qisqa parcha sifatida ishlatiladi.

O'zbek tilida **vignette** so'zining aniq ekvivalenti yo'qligidan kelib chiqib, uni **kichik tasvir**, **qisqa hikoya**, **ramziy rasm** kabi atamalar bilan ifodalash mumkin. Grafikada esa bu atama rasm yoki foto atrofidagi yumaloq chegaralarni bildiradi.

kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan ilmiy-metodik asoslar yaratildi;

xorijiy mamlakatlarda bullingga qarshi profilaktik yondashuvlar tahlil qilinib, mentalitet, milliy qadriyatlar tizimi va tarbiyaviy yondashuvlarning farqlari va o'xshashliklari umumiyligi va xususiyligi ilmiy asosda o'rganildi;

bo'lajak pedagogika o'qituvchilarining bullingni oldini olishga doir kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy-texnologik tizim takomillashtirilib, unda innovatsion pedagogik metodlar va interfaol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi;

sinf jamoasida va maktab miqyosida bullingning oldini olish bo'yicha tizimli faoliyatni rejalashtira olish va amalga oshira olishni ta'minlovchi pedagogika o'qituvchisi konsepsiyasi ishlab chiqilib, unda bo'lajak pedagoglarning bullingni oldini olishga doir kompetensiyalarini rivojlantirish va ularning kasbiy mahoratini takomillashtirishga oid metodik tavsiyalar asoslab berildi. Kasb tanlashda psixologik yordam uslubiy ko'rsatmasi tayyorlanib №DGU49418 raqamli guvohnoma O'zbekiston Respublikasining «Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida»gi qonuniga asosan olingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan metodologik yondashuvlarning ilmiy asoslanganligi, ishlab chiqilgan pedagogik modelning nazariy va amaliy jihatdan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi. Tadqiqot pedagogika fanining turli tarmoqlari bo'yicha mamlakatimiz va xorijdagi yetakchi olimlar, metodist va amaliyotchilarning ilmiy ishlari hamda tajribalariga asoslangan holda olib borildi. Olingan natijalar pedagogik tajriba-sinov ishlari davomida matematik-statistik tahlil vositasida, jumladan, Student-Fisher kriteriyalari, dispersiya tahlili va variatsiya koeffitsiyentlari orqali tasdiqlandi. Shuningdek, ta'lim va tarbiya metodlarining samaradorligi baholanib, tadqiqot maqsad va vazifalarining adekvatligi aniqlangan. Olingan xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilib, natijalar mutasaddi tashkilotlar tomonidan tasdiqlandi hamda xalqaro ilmiy adabiyotlarda mavjud yondashuvlar bilan solishtirildi, bu esa tadqiqotning mazmuni va metodlari ilmiy jihatdan yuqori ishonchlilik darajasiga ega ekanligini ko'rsatdi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalari bo'lajak pedagogika o'qituvchilarining bullingni oldini olishga doir kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan nazariy, metodik va texnologik asoslarning takomillashtirilganligi bilan ilmiy jihatdan ahamiyatlidir. Xorijiy mamlakatlarda bullingga qarshi profilaktik yondashuvlar asosida talabalarni maktab muhitida bullingni oldini olish texnologiyasiga oid kompetensiyalarini takomillashtirish modeli ishlab chiqilib, uning nazariy tahlili amalga oshirildi. Tadqiqot doirasida taklif qilingan metodologik yondashuvlar, ilmiy gipotezaning ishonchliligi va pedagogik tamoyillar nazariy asoslanganligi ilmiy yangilik sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan pedagogik model va uning komponentlari bo'lajak o'qituvchilarni maktab muhitida bullingni oldini olish texnologiyasiga oid kompetensiyalarini o'quvchilarni ma'naviy-

axloqiy tarbiyalash jarayonida qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu modulni tarbiya tamoyillari, usullari va metodlarining samaradorligiga innovatsion tatbiq etish, umuminsoniy tamoyillar uyg'unligini ta'minlash bilan birga, interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar, axloqiy dilemmalar tahlili va shaxsiy namuna kabi zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali o'quv jarayonini sifat jihatidan boyitish imkonini beradi. Shuningdek, u tanqidiy va tahliliy fikrlash, ijtimoiy javobgarlik va shaxsiy mas'uliyatni his qilishda samarali vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari pedagogik oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini takomillashtirish, talabalarni bullingni oldini olishga doir kompetensiyalarini rivojlantirish mezon va ko'rsatkichlari hamda ularning kasbiy kompetensiyalari va bullingning oldini olishga doir kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan ilmiy-metodik mezonlarini ishlab chiqish hamda milliy va xalqaro pedagogik tajribalarni integratsiya qilish orqali ta'lim sifatini oshirishda keng qo'llanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Pedagogika yo'nalishi talabalarining maktab muhitida bullingning oldini olish texnologiyasiga oid kompetensiyalarini takomillashtirish borasidagi olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak o'qituvchilarning bullingni aniqlash kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik zarurati o'qituvchining sinfdagi yoki maktab jamoasidagi bulling holatlarini turli vignettalar asosida ta'lim jarayonida kognitiv tahlil va integrativ tarkibiylikka aksil-mazmunli yondashuv orqali shaxsiy identifikatsiya trayektoriyasiga ko'ra aksiologik-motivatsion integratsiyalash orqali asoslangan taklif va tavsiyalar «Ontogenez psixologiyasi» nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 218-164-sonli nashr ruxsatnomasi, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 10-oktyabrdagi 02/01-01-390-sonli ma'lumotnomasi) Natijada, o'qituvchining sinfdagi yoki maktab jamoasidagi bulling holatlarini turli vignettalar asosida ta'lim jarayonida kognitiv tahlil texnologiyalarini tatbiq etish hamda pedagogika o'qituvchilarining kasbiy rivojlantirishga xizmat qilgan, talabalarining tarbiyaviy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga erishilgan;

bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ yondashuv kompetensiyasini rivojlantirish bullingning oldini olish jarayonida pedagogning muloqot qilish va psixologik ta'sir o'tkaza olish mahoratidan foydalanishning konseptual asoslari aksiologik yondashuv va kognitiv tahlil asosida talabalarining «o'qituvchi – bosqinchi o'quvchi», «o'qituvchi – jabrlanuvchi o'quvchi», «o'qituvchi – guvoh o'quvchi» kabi rolli o'yinlarni reflektiv talqini orqali ochib berish asosida takomillashtirish borasidagi taklif va tavsiyalardan «Oila psixologiyasi» nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 423-286-sonli nashr ruxsatnomasi, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 10-oktyabrdagi 02/01-01-390-sonli

ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ yondashuv kompetensiyasini rivojlantirish bullingning oldini olish jarayonida pedagogning muloqot qilish va psixologik ta'sir o'tkazishidagi ilg'or jihatlarni integratsiyalash borasida takliflar ishlab chiqilgan;

bulling sodir bo'lganda pedagog sifatida tegishli choralarni ko'ra bilish, vaziyatga aralashish va mojaroni hal etish bo'yicha amaliy ko'nikmalarning o'ziga xos jihatlarni aksiologik yondashuv asosida tahlil qilish hamda bu ko'nikmalarni baholash uchun maxsus (bulling turlarini aniqlashga doir) keys-stadi topshiriqlari, «Pedagog aralashuvi» usuli tarbiya tamoyillari, usullari va metodlarining samaradorligiga innovatsion tatbiq etish borasidagi tavsiyalardan «BARQAROR HAYOT» Xalqaro ijtimoiy ma'rifat markazi Namangan filiali tomonidan «Inson qadri ulug'langan yurtda hech kim e'tibordan chetda qolmas» loyihasi doirasida qo'llanildi (2025- yil 29-avgustdagi 5-son ma'lumotnomasi) Natijada, ilmiy taklif va tavsiyalar asosida bo'lajak pedagogika o'qituvchilarining bulling sodir bo'lganda pedagog sifatida tegishli choralarni ko'ra bilish, vaziyatga aralashish va mojaroni hal etish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishning metodik asoslarini ommalashtirish imkoniyatlari yaratilgan;

sinf jamoasida va maktab miqyosida bullingning oldini olish bo'yicha tizimli faoliyatni rejalashtira olish va amalga oshira olishni ta'minlovchi pedagogika o'qituvchisi konsepsiyasi kasbiy mo'ljalning universallik va formativlik tamoyillariga muvofiq didaktik konvergensiya vositasida «Maktabda bullingni oldini olish», «Ota-onalar uchun bulling haqida seminar-trening», «Do'stona sinf muhitini shakllantirish» kompetensiyalarini integrativ shakllantirishni samarali joriy etish bo'yicha bildirilgan taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «O'zbekiston 24» ijodiy birlashmasi «O'zbekiston» teleradiokanali tomonidan tayyorlangan «Ta'lim va taraqqiyot», «Bolalar va biz», «Adabiy jarayon», «O'zbekiston yoshlari» nomli dasturlar ssenariysini tayyorlashda (2025-yil iyul va avgust oylarida) foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «O'zbekiston 24» ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2025-yil 16-sentabrdagi 05-09-1446-son ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak pedagogika o'qituvchilarining sinf jamoasida va maktab miqyosida bullingning oldini olish bo'yicha tizimli faoliyatni rejalashtirishga yo'naltirilgan amaliy-texnologik tizim ommalashtirishga erishilgan.

bo'lajak pedagoglarning bullingni oldini olishga doir kompetensiyalarining tarkibiy jihatlari pedagogik modeli tarbiya nazariyasining aksiologik asoslari va ta'lim jarayonida axloqiy dilemmalarni integratsiya qilish orqali talabalarning shaxsiy mas'uliyatini oshirishga metodik yo'naltirish asosida takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar «Kasb psixologiyasi» nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 218-180-sonli nashr ruxsatnomasi, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 10-oktyabrdagi 02/01-01-390-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, bullingni oldini olishga doir kompetensiyalarining tarkibiy jihatlari pedagogik modelini o'quv jarayoniga tatbiq etish hamda bo'lajak pedagogika

o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirish, tarbiyaviy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta, shu jumladan, 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mazmunini yorituvchi jami 27 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta o'quv qo'llanma, 2 ta darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 215 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida tadqiqot ishining dolzarbligi asoslab berilgan, maqsadi, obyekt, predmeti va vazifalari belgilangan, tadqiqot ishini tashkil etishning nazariy va metodologik asoslari ta'riflangan, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Maktab muhitida bulling hodisasining nazariy va ilmiy-metodologik asoslari**» deb nomlanadi va unda bulling tushunchasi va uning ta'lim muhitida namoyon bo'lish shakllari, o'quvchilar o'rtasida bulling holatlarining psixologik-pedagogik oqibatlarini, xorijiy mamlakatlarda bullingga qarshi profilaktik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Bulling konsepsiyasining pedagogik tadqiqotlar doirasida chuqur o'rganilishi shundan dalolat beradiki, bu hodisa faqat psixologik buzilish emas, balki ijtimoiy-madaniy kontekstga ega bo'lgan tizimli muammodir. Bulling hodisasi oddiy janjal, kelishmovchilik yoki tasodifiy nizodan tubdan farq qiladi. Shu sababli uni boshqa pedagogik, psixologik yoki sotsial jarayonlardan ajratib turuvchi asosiy belgi va mezonlarni ilmiy nuqtai nazardan aniq ko'rsatilib berilgan. Bullingni o'rganishda uni boshqa hodisalardan farqlash uchun uchlik mezon – qasddanlik, takroriylik va kuch nomutanosibligi, ilmiy va diagnostik asoslar ya'ni ushbu mezonlar orqali maktab psixologi yoki sinf rahbari aniq holatni tahlil qilib, bulling bor-yo'qligini aniqlashi mumkinligi ilmiy asosda tahlil qilingan va yoritib berilgan.

Bulling va boshqa salbiy hodisalar o'rtasidagi farqlar quyidagi 1-jadvalda maktab muhitidagi nizoli vaziyatlar bilan taqqoslagan holda ifodalangan.

1-jadval

### Bulling va boshqa salbiy hodisalar o'rtasidagi farqlar

Hodisa turi	Qasddanlik	Takrorlanuvchi	Kuch nomutanosibligi	O'quvchilar orasida keng
-------------	------------	----------------	----------------------	--------------------------

				<b>tarqalganmi?</b>
Oddiy janjal	Yo‘q	Yo‘q	Teng	Ha (lekin o‘tkinchi)
Hazil	Ko‘pincha yo‘q	Takroriy bo‘lishi mumkin	Teng yoki oz farqli	Ha
Bulling	Ha	Ha	Ha	Ha (xavfli shakl)
Raqobat	Yo‘q	Bo‘lishi mumkin	Teng yoki past	Ha
Zo‘ravonlik (1 martalik)	Ha	Yo‘q	Har xil	Kamroq

Bulling – bu o‘ziga xos belgilar bilan ajralib turuvchi, ijtimoiy-psixologik xavfli hodisa hisoblanishi, u tasodifiy nizolar yoki oddiy hazil-huzuldan farqli ravishda, bolaning shaxsiyatiga jiddiy zarar yetkazishi va doimiy stress manbai bo‘lib xizmat qilishi yoritib berilgan.

Bulling hodisasi o‘zining shakl va ko‘rinishlariga ko‘ra turli xil tiplarda namoyon bo‘ladi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda bu shakllar asosan quyidagicha tasniflanadi: jismoniy bulling, og‘zaki (verbal) bulling, ijtimoiy-psixologik bulling, kiberbulling, hamda iqtisodiy (moliyaviy) bulling. Shuningdek, har bir tur o‘zining bevosita yoki bilvosita, individual yoki guruhli, ochiq yoki yashirin shaklda amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi.

Bullingga qarshi samarali kurashning eng muhim jihatlaridan biri bu – uni erta aniqlash, to‘g‘ri tashxislash va ilmiy asoslangan baholash vositalaridan foydalanishdir. Maktab psixologlari va sinf rahbarlari bulling holatini aniqlashda ilmiy asoslangan test va so‘rovnomalardan foydalanishlari lozim. Maktab jamoasi, ayniqsa, sinf rahbari va psixolog hamkorligida o‘tkazilgan monitoring bullingning erta bosqichini aniqlashga yordam beradi. Pedagogik jarayonda bullingni aniqlash uchun quyidagi 2-jadvalda keltirilgan indikatorlar asos bo‘lib xizmat qilishi tavsiya etildi.

2-jadval

### **Bullingni aniqlash vositalari**

<b>Indikator</b>	<b>Baholash vositasi</b>
Jismoniy shikastlanish	Tibbiy tekshiruv, suhbat
O‘quvchining darsda passivligi	Pedagogik kuzatuv, darsga ishtirok protokoli
Sinfdan chetlashganlik	Sotsiometriya, guruh faoliyatidagi rol
Psixosomatik simptomlar	Sog‘liq monitoringi, psixologik suhbat
So‘z orqali haqoratlar	Sinfdagi ijtimoiy monitoring, guvoh bayonnomalari
Kiberbullingga duch kelganlik	Raqamli xavfsizlik bo‘yicha so‘rovnomalari

Agar ushbu indikatorlardan 3-4 tasi muntazam kuzatilsa, bulling xavfi mavjud deb baholanadi va shoshilinch psixologik hamkorlik va chora-tadbir zarur bo‘ladi.

Jamiyatda zo‘ravonlik masalasi ko‘p hollarda «ichki muammo» sifatida qabul qilinadi. Bu degani, shaxsga nisbatan tajovuz yoki kamsitish holatlari tez-tez oddiy janjal, tarbiya vositasi yoki erkaklik belgisi sifatida baholangan.

Yunus Rajabiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho‘lpon kabi milliy ma‘rifatparvarlar pedagogik qarashlarida ham bolani hurmat qilish, zo‘ravonliksiz

tarbiya, mehr-oqibat asosida shaxsni shakllantirish g'oyalari ilgari surilgan. Ayniqsa Avloniy o'zining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida zo'ravonlik, tahqirlash, tanbeh orqali emas, balki yaxshi muomala, odob, ta'sirli o'git orqali tarbiya berish zarurligini alohida ta'kidlaydi.

Bulling holatlarining asosiy belgilari va farqlovchi jihatlari, ilmiy adabiyotlarda bulling hodisasi quyidagi uchta asosiy kriteriy bilan ajralib turadi:

1.Kuchlar nomutanosibligi – agressor jismonan, ijtimoiy jihatdan yoki emotsional jihatdan ustun pozitsiyada turadi;

2.Takroriylik – tajovuzkor harakatlar bir martalik emas, balki tizimli va uzluksiz takrorlanadi;

3.Onglilik – harakatlar tasodifiy emas, balki ongli va maqsadli zo'ravonlikni ifodalaydi.

Bullingni oddiy nizolar, janjallar yoki bahs-munozaralardan ajratib turuvchi jihat ham aynan shulardir. O'zaro kelishmovchilik har ikki tomonning kuchi va irodasi teng bo'lgan sharoitda yuz berishi mumkin, bullingda esa bir tomon mutlaqo zaif va himoyasiz bo'ladi.

Bullingning pedagogik-psixologik tasnifi atroflicha o'rganilib turlari, uning amalga oshirilish usuli, ijtimoiy ta'sir darajasi va sezilishi bo'yicha turlicha shakllarda ifodalanishi yoritib berildi va o'quv jarayoniga nafaqat individual darajada, balki butun sinf va maktab miqyosida salbiy ta'sir ko'rsatishi quyidagi 3-jadvalda keltirildi.

3-jadval

### **Bulling oqibatlari**

<b>Ta'sir sohasi</b>	<b>Salbiy oqibatlar</b>
O'quvchi darajasida	O'qishga motivatsiyaning yo'qolishi, past baholar, stress
Sotsial darajada	Guruhlashish, ajralish, sinfdagi ishonchning yo'qolishi
Maktab darajasida	Ta'lim sifati pasayishi, ishonch yo'qolishi, ota-onalar ishonchsizligi
O'qituvchi faoliyatida	Sinfdagi boshqaruv qiyinlashadi, darsga e'tibor kamayadi

Bullingning ijtimoiy-psixologik oqibatlari-ijtimoiy ajralish, kommunikativ izolyatsiya, ichki yoki tashqi agressiyaning shakllanishi, shaxsiy ijtimoiy rollar va identitetning inqirozi kabi holatlar orqali namoyon bo'ladi. Bu jarayonlar bola shaxsining sog'lom rivojlanishini izdan chiqaradi, uning jamiyatga moslashuvini sekinlashtiradi va shaxslararo ishonchni yemiradi.

Ijtimoiy-psixologik oqibatlar bullingning eng chuqur, eng uzoq muddatli va ko'pincha qaytarilmas salbiy jihatlaridandir. Shu sababli, ushbu oqibatlarni aniqlash, oldini olish va rehabilitatsiya qilish bo'yicha ilmiy asoslangan pedagogik tizim zarurligi ilmiy asoslandi va milliy qonunchilik va xalqaro me'yorlar o'rtasidagi qiyosiy tahlil quyidagi 4-jadvalda keltirildi.

4-jadval

### **Bullingga oid milliy qonunchilik va xalqaro me'yorlar**

Me'yoriy holat	O'zbekiston	Xalqaro amaliyot (AQSh, EU, Finlyandiya)
Bulling atamasining qonuniy belgilanishi	Bilvosita (umumiy tahdid, haqorat orqali)	Aniq va to'g'ridan-to'g'ri huquqiy ta'rif mavjud
Maktab siyosati	Tavsiyaviy	Majburiy (maktab siyosati qonun asosida)
Monitoring va hisobot	Hali to'liq yo'lga qo'yilmagan	Har yili milliy darajada hisobot tayyorlanadi
Maxsus dasturlar (profilaktika)	Eksperimental bosqichda	Keng qamrovli milliy dasturlar mavjud (KiVa, Olweus)
Yuridik javobgarlik	Umumiy tartib (Ma'muriy kodeks)	Maxsus qonunlar bilan tartibga solinadi

«O'quvchilar o'rtasida bulling holatlarining psixologik-pedagogik oqibatlarini»ni o'rganishda bulling hodisasining ko'p qirrali salbiy ta'siri tizimli, nazariy va empirik yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida bullingga qarshi yondashuvlari mustahkam qonunchilik, metodik dasturlar, psixologik xizmatlar, raqamli xavfsizlikni ta'minlash kabi ko'p qirrali choralar asosida shakllanib borayotganligi o'rganildi. Zamonaviy ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri – o'quvchilar salomatligini ta'minlash, xavfsiz muhitni yaratish va bolalarning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etishdan iboratligi, bu borada, xorijiy mamlakatlarda bullingga qarshi profilaktik chora-tadbirlar ta'lim siyosatining ajralmas qismiga aylantirilganligi aniqlandi.

Dunyo miqyosida bullingga qarshi kurashish sohasida samarali tajribalar nafaqat AQSh, Buyuk Britaniya yoki Finlyandiya tegerak. Kanada, Norvegiya, Yaponiya, Avstraliya kabi davlatlar ham ta'lim tizimida bulling muammosini tizimli yondashuvlar orqali hal etishga katta e'tibor qaratmoqda. Ushbu mamlakatlardagi dasturlar, qonunchilik asoslari, yondashuvlarning asosiy jihatlari tahlil qilinadi va quyidagi 5-jadvalda qiyosiy ko'rinishda taqdim etildi.

5-jadval

### Rivojlangan davlatlarda bulling darajalari

Davlat	Model/Dastur	Asosiy yo'nalishlar	Natija (%)
Kanada	WITS, Roots of Empathy	Empatiya, qo'llab-quvvatlash	-40% bulling
Norvegiya	OBPP (Olweus)	Maktab iqlimi, monitoring	-50% bulling
Yaponiya	Ijime Committee	Madaniyat, ijtimoiy bosim	32% kamayish
Avstraliya	Be You, Friendly Sch.	Psixologik sog'lomlik, hamkorlik	-30% holatlar
Estoniya	KiVa	Interaktiv darslar, maktab jamiyati	-35% bulling

Bullingga qarshi profilaktika bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar turli mamlakatlar kontekstida turfa yo'nalishlarda shakllangan bo'lsada, ularning umumiy pedagogik-psixologik mohiyati – ta'lim muhitida sog'lom, xavfsiz, hurmatga asoslangan ijtimoiy-iqlim yaratishga qaratilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Pedagogika yo'nalishi talabalarida**

**bullingga qarshi profilaktika kompetensiyalarining shakllanishi»** deb nomlanadi. Mazkur bobda pedagogik kompetensiya va bulling profilaktikasi bo'yicha maxsus ko'nikmalar, oliy pedagogik ta'limda bullingga oid kompetensiyalarning tarkibi va modeli, pedagogik ta'lim jarayonidagi mavjud imkoniyat va muammolar tahlili yoritiladi.

Pedagogik kompetensiya bu faqat tayyorgarlik yoki malaka darajasi emas, balki o'qituvchining kasbiy jarayondagi xolislik, moslashuvchanlik, muloqot madaniyati, etika, stressga chidamlilik, innovatsion yondashuv va shaxsiy mas'uliyat kabi kompleks sifatlarining birikmasidir. Aynan mana shu kompetensiyalar majmuasi bulling muammosini hal etishda, unga profilaktik yondashuvda o'ta muhim o'rin tutishi aniqlandi.

Aynan bulling ya'ni maktab muhitida zo'ravonlik, tazyiq, ajratish, haqoratlash, tajovuzkorlik va raqamli tahqirlash kabi holatlar pedagog shaxsining nafaqat umumiy, balki maxsus kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish zarurligini taqozo etadi. Shu sababli, pedagogik kompetensiyalarni bulling profilaktikasi kontekstida qayta talqin qilindi, uni to'rt asosiy blokda tizimlashtirish maqsadga muvofiqligi tavsiya etildi.

Bulling profilaktikasi kontekstida pedagogik kompetensiya oddiy kasbiy malaka darajasidan ancha keng tushuncha bo'lib, u nazariy bilimlar (kognitiv), amaliy harakatlar (operatsion), shaxsiy-axloqiy pozitsiya (emotsional) va doimiy o'zgarishga ochiqlik (refleksiv) komponentlaridan iborat kompleks tuzilma hisoblanadi. Shu bois quyidagi maxsus ko'nikmalarni keltirdik:

1. Diagnostika ko'nikmasi. Bulling holatlarini aniqlash – profilaktikaning boshlang'ich va eng muhim bosqichidir.

2. Risk faktorlarini tahlil qilish ko'nikmasi. Bu ko'nikma orqali pedagog o'quvchining bulling holatiga nisbatan qanday xavf omillariga duch kelayotganini aniqlay oladi.

3. Vositalash va intervensiya (aralashuv) ko'nikmasi. Bullingni faqat aniqlash emas, balki unga to'g'ri aralashuv strategiyasini ishlab chiqish ham pedagogning asosiy vazifalaridandir.

4. Raqamli savodxonlik va kiberbulling monitoringi. Hozirgi ta'lim muhiti raqamlashtirilgan.

5. Huquqiy xabardorlik va javobgarlik. Bullingga nisbatan noto'g'ri munosabatlar ko'pincha huquqiy savodsizlik natijasida yuzaga keladi.

6. Hamkorlik va kommunikativ ko'nikmalar. Bullingga qarshi kurash faqatgina pedagogning emas, balki maktabdagi butun tizimning birgalikdagi faoliyatini talab qiladi.

7. Refleksiya va o'z-o'zini baholash.

Bullingga qarshi kurashishda faqat bilim emas, balki aniq kasbiy harakatlarga yo'naltirilgan maxsus ko'nikmalar pedagog shaxsining tayyorgarligini belgilab beradi. Diagnostika, aralashuv, kiberxavfsizlik, huquqiy yondashuv, hamkorlik, refleksiya kabi ko'nikmalar-bularning barchasi kompleks yondashuvni shakllantiradi va pedagogika yo'nalishi talabalarining bullingga qarshi texnologik tayyorgarligini aniqlovchi mezon sifatida xizmat qiladi.

O'quv fanlari mazmuniga bullingga oid tarkibiy komponentlarni integratsiyalash, talabalarni bulling muammosiga tayyorlash faqat «Maxsus kurs»

bilan cheklanmasligi kerakligi ochib berildi. Ta'lim jarayonida faqat ma'ruza shaklida bilim berish emas, balki talabalarni faol ishtirokchi sifatida shakllantirish muhimligi qayd etilib, pedagogika yo'nalishidagi talabalarni maktab muhitida bullingga qarshi kurashish texnologiyalariga tayyorlashda zamonaviy ta'lim konsepsiyalari muhim ahamiyatga egaligi ilmiy asoslandi. Xususan, shaxsga yo'naltirilgan (personallashtirilgan) va tizimli (integrativ) yondashuvlar orqali talaba nafaqat bulling muammosini anglaydi, balki bu muammoni hal etish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va munosabatlar tizimini ham shakllantiradi. Shaxsga yo'naltirilgan va tizimli yondashuvlar, bir-birini inkor etmaydi, aksincha 6-jadval keltirilganidek ular bir-birini to'ldiradi va boyitadi

6-jadval

### Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar

Shaxsga yo'naltirilgan	Tizimli
Talabaning individual ehtiyojlariga moslashadi	Ta'lim mazmunining butunligini ta'minlaydi
Shaxsiy mas'uliyat va motivatsiyani oshiradi	Tashkilotli va rejalashtirilgan rivojlanishni ta'minlaydi
Refleksiya va emotsional ongni rivojlantiradi	Analitik fikrlash va kompleks qaror qabul qilishni o'rgatadi

Ushbu uyg'unlik asosida kompetensiyalarni shakllantirishda ta'lim texnologiyalari ichida trening texnologiyalari shaxsiy o'sish, kasbiy o'zgarish va axloqiy-ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda eng samarali usullardan biri hisoblanadi, treninglar orqali talabalarda analitik tafakkur, kasbiy refleksiya, axloqiy pozitsiya va amaliy qaror qabul qilish kompetensiyalari shakllanadi. Pedagogika yo'nalishidagi talabalarda bullingga qarshi profilaktika kompetensiyasining samarali shakllanishi nafaqat uni rivojlantirish bo'yicha metodlar, balki bu kompetensiyaning baholash tizimi orqali ham aniqlanadi.

Baholash jarayoni 7-jadvalda ko'rsatilganidek bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

7-jadval

### Bulling bo'yicha bilim va ko'nikmalarni baholash tizimi

Bosqich	Maqsad	Asosiy vositalar
1. Diagnostika	Boshlang'ich bilim va munosabatlarni aniqlash	So'rovnoma, test, suhbat
2. Jarayonli monitoring	Ta'lim davomida kompetensiya rivojlanishini kuzatish	Portfel, amaliy topshiriqlar, kuzatuv
3. Yakuniy baholash	Umumiy tayyorgarlik darajasini aniqlash	Keys yechish, prezentatsiya, loyiha himoyasi
4. O'z-o'zini baholash	Shaxsiy refleksiya va metakognitiv o'sishni aniqlash	O'zini baholash jurnali, esse, individual fikrlar

Ushbu bosqichlar orqali nafaqat obyektiv baholash, balki subyektiv va aks ettiruvchi baholash usullari ham qo'llaniladi.

Yuqorida zikr etilganlar asosida qiyosiy mezonlar 8-jadvalini ishlab chiqildi.

8-jadval

### Bulling bo'yicha bilim va ko'nikmalarni baholash darajalari

Komponent	Minimal daraja	O'rtacha	Yuqori daraja
Bilim	Bulling turlarini farqlamaydi	Asosiy tushunchalarni biladi	Tushunchalarni mukammal anglaydi
Amaliy ko'nikma	Farqlashda qiynaladi	Yordam bilan anglashga harakat qiladi	Mustaqil strategiya ishlab chiqadi
Refleksiya	Pozitsiyasi yo'q	Ba'zan anglaydi	Axloqiy pozitsiyani doimiy ushlab turadi
Motivatsiya	Passiv	Faollik o'rtacha	Tashabbuskor va ijtimoiy javobgar

Zamonaviy maktab muhitida bo'lajak o'qituvchilarning nafaqat an'anaviy didaktik tayyorgarligi, balki ijtimoiy-psixologik xavfsizlikni ta'minlashga doir maxsus kasbiy kompetensiyalari ham shakllantirilishi lozim. Chunki bulling hodisasi, psixologik-pedagogik jihatdan olib qaralganda, maktabdagi shaxslararo munosabatlar tizimining buzilishi, nizoli vaziyatlarning chuqurlashuvi va o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omil sifatida namoyon bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda bullingni aniqlash, baholash va unga aralashish bo'yicha kompetensiyalar yetarli shakllanmaganligi sababli bulling holatlarini yillar davomida kuchaytirib yuborishi mumkinligi aniqlandi. Bu kompetensiyalarni shakllantirishda zamonaviy, tizimli, komponentlarga bo'lingan modelga asoslangan yondashuvni qo'llash hamda ushbu kompetensiyalarning mazmuni ilmiy nazariy tahlil qilindi:

1. Bilim (kognitiv komponent). Bu komponent pedagogik faoliyatning nazariy asosini tashkil etadi.

2. Ko'nikma (faoliyatiy komponent). Bu komponent bilimni amaliyotda qo'llash qobiliyatini anglatadi.

3. Munosabat (affektiv komponent). Bu komponent o'qituvchining shaxsiy qadriyatlarini, ichki e'tiqodi va hissiy barqarorligiga taalluqlidir.

Ushbu uchlikni Venn diagramma tarzida berish yoki blok sxema (o'quvchi → bulling → o'qituvchi aralashuvi → natija) orqali ifodalash ko'rgazmaliligini oshirishi sharhlab berildi. «Ta'lim muhitida konfliktologiya va bulling profilaktikasi» kabi maxsus kurslar, pedagogik amaliyot davomida sinf rahbariyati bo'yicha topshiriqlar, psixologik xizmat faoliyati bilan tanishtirish va treninglar shular jumlasidandir.

**CDIO** modeli (Conceive-Design-Implement-Operate) esa asosan muhandislik ta'limida qo'llansa-da, uning tamoyillari pedagogik ta'limga ham tatbiq etilmoqda. CDIO yondashuvi ta'lim jarayonini amaliy loyihalar orqali qurishni, nazariy bilimlarni real vaziyatlarda qo'llashni ta'kidlaydi. Bu yondashuvga ko'ra, talaba faqat bilim olish bilan cheklanmasdan, balki uni ijodiy loyiha ishlab chiqish va amalga oshirish davomida puxta o'zlashtiradi. Bizning tadqiqotimizda bullingga oid kompetensiyalarni shakllantirish ham nazariya va amaliyotni integratsiya qilishni talab qildi. Masalan, talabalarga bulling bo'yicha nazariy bilim bergandan so'ng, CDIO tamoyili bo'yicha, ularni maktab amaliyotiga jalb etish, maxsus

treninglar va rolli o‘yinlar orqali real vaziyatlarda o‘z ko‘nikmalarini sinab ko‘rishga imkon yaratildi. Bu jarayonda talabalar «tasavvur qilish – rejalashtirish – qo‘llash –tahlil qilish» sikli orqali o‘z kompetensiyalarini boyitadilar. CDIO shuningdek talabalarning shaxsiy va jamoaviy kompetensiyalari (mas’uliyat, liderlik, jamoada ishlash)ni rivojlantirishga urg‘u beradi, bu esa bulling profilaktikasida muhim bo‘lgan jamoaviy muhit yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qildi.

Bullingga oid kompetensiyani rivojlantirishda talabalarning bilim darajasini tushunish →qo‘llash →tahlil → sintez kabi yuqori darajalarga ko‘tarish, shuningdek, ularning munosabatlarini e‘tibor berish →ishtirok etish →baholash → ichkilashtirish bosqichlarida o‘stirib borish zarur bo‘ldi.

Zamonaviy pedagogik faoliyatda bilimlar nafaqat kasbiy tayyorgarlik, balki o‘qituvchining ijtimoiy javobgarligini ham belgilovchi omil sifatida e‘tirof etildi. Bulling profilaktikasiga oid bilimlar majmui bo‘lajak pedagoglar tomonidan bu muammoni chuqur tushunish, aniqlash va unga ongli munosabatda bo‘lish uchun zarur bo‘lgan nazariy asos ekanligi yoritib berildi. Quyidagi 9-jadvalda keltirilgan uch komponent bir butun holda namoyon bo‘lgandagina bullingga qarshi samarali pedagogik kompetensiya shakllanadi. Jadvalda bullingga oid kompetensiyaning tarkibiy qismlari mazmuni umumlashtirib ko‘rsatildi:

9-jadval

### Bullingga oid kompetensiyalarning tarkibiy qismlari

Komponent	Mazmuni va asosiy unsurlari
<b>Bilim (kognitiv)</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– Bulling hodisasi haqidagi nazariy bilimlar (ta’rif, turlar, sabablar, oqibatlar)</li> <li>– O‘smirlar psixologiyasi va nizoli vaziyatlar nazariyasi bo‘yicha bilimlar</li> <li>– Bullingni aniqlash mezonlari va belgilari</li> <li>– Huquqiy me’yorlar va maktab ichki tartib-qoidalari (xavfsiz muhit talablari) bo‘yicha bilimlar</li> </ul>
<b>Ko‘nikma (faoliyat)</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– Bullingni aniqlash, erta ogohlantirish ko‘nikmalari</li> <li>– Konfliktologiya va vositachilik (meditatsiya) bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar</li> <li>– Jabrlanuvchilarni himoya qilish va bullerlar bilan ishlash usullarini qo‘llay bilish</li> <li>– Profilaktika tadbirlarini rejalashtirish va o‘tkazish (treninglar, davra suhbatlari va h.k.) malakalari</li> <li>– Ota-onalar va psixologlar bilan hamkorlik qilish ko‘nikmalari</li> </ul>
<b>Munosabat (affektiv)</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– Bullingga nisbatan murosasiz, notolerant munosabat</li> <li>– O‘quvchilarga nisbatan empatik va adolatli munosabat</li> <li>– Pedagogik burch va mas’uliyatni his qilish (bullingga aralashishdan cho‘chimaslik)</li> <li>– Sinfdagi sog‘lom psixologik muhitni qadrlash va unga intilish</li> <li>– O‘z ustida ishlashga va vaziyatni tahlil qilishga tayyorlik (reflektiv pozitsiya)</li> </ul>

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Talabalarda bulling profilaktikasi kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha texnologik yondashuv**» deb nomlanadi. Mazkur bobda bullingga qarshi kurashish kompetensiyalarini rivojlantirishga oid texnologiyalar (modul, trening, keys), maxsus mashg‘ulotlar va amaliy treninglarning didaktik asoslari, o‘quv jarayoniga texnologiyani

integratsiya qilish shart-sharoitlari qiyofasi tahlil etilib, talabalarni maktab muhitida bullingni oldini olish texnologiyasiga oid kompetensiyalarini takomillashtirish tizimi, bullingni oldini olishga oid kompetensiyalar (BOOOK)ni shakllantirish va rivojlantirish modeli, bulling profilaktikasiga oid texnologiyalarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha takomillashtirilgan pedagogik model metodik asoslari aniqlashtirilgan hamda uni amalga oshirishning samarali vosita va usullari keltirilgan.

Talabalarni maktab muhitida bullingni oldini olish texnologiyasiga oid kompetensiyalarini takomillashtirish o‘quv bilish faoliyati orqali bulling profilaktikasi kompetensiyalarini shakllantirishga bevosita bog‘liq bo‘lib texnologiya va tizimni tashkil etuvchi komponentlarning o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligi kabi qator xususiyatlar inobatga olindi. Namangan davlat pedagogika instituti pedagogika fakultetida joriy etilgan «O‘smirlik davridagi bulling profilaktikasi va diagnostikasi» moduli 3-bosqich Pedagogika (qo‘shimcha tarbiya fani o‘qituvchisi) yo‘nalishi talabalari uchun «Tarbiyaviy faoliyat diagnostikasi va korreksiyasi» fani mavzulari doirasida trening texnologiyasiga ustuvorlik berish asosida o‘qitishning metodik asoslari ishlab chiqildi.

Trening texnologiyasining asosiy tamoyili – faol ishtirok va refleksiya. Trening mashg‘ulotida har bir ishtirokchiga o‘z fikrini aytish, o‘z tajribasini baham ko‘rish va boshqalarning fikrini tinglash imkoniyati beriladi. Guruhiy muhitda ishtirokchilar bir-birini qo‘llab-quvvatlash va tushunish hissini his etadilar, natijada ochiq muloqot va ishonch muhiti shakllanadi. Bunday muhitda bulling mavzusidagi nozik masalalarni ham muhokama qilish yengillashadi – talabalar o‘z qo‘rquv va xavotirlarini erkin ifoda eta oladilar, boshqalarning nuqtayi nazarini eshitadilar. Pedagogika yo‘nalishi talabalarining maktab muhitida bullingning oldini olish texnologiyasiga oid kompetensiyalarini takomillashtirish maqsadida modul, trening va keys-stadi texnologiyalaridan foydalanildi.

Bulling profilaktikasi kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan o‘quv jarayonida quyidagi 10-jadvalda keltirilgan texnologiyalarni integratsiya qilish maqsadga muvofiqligi asoslab berildi.

10-jadval


### **Bulling profilaktikasi bo‘yicha kompetensiyalarni shakllantirish texnologiyalari**

<b>Texnologiya turi</b>	<b>Xususiyatlari va misollar</b>
<b>Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)</b>	Raqamli ta‘lim platformalari, onlayn ma‘lumotlar bazalari va internet vositalari orqali bilim va ko‘nikmalarni oshirish. Masalan, bulling profilaktikasiga oid onlayn kurslar, veb-seminarlar (vebinarlar) yoki elektron kutubxona materiallari talabalarga taqdim etilishi mumkin. Bunday AKT vositalari bullingning oldini olish bo‘yicha eng so‘nggi ilmiy ma‘lumotlar, huquqiy hujjatlar va metodikalar bilan tanishtiradi.
<b>Interaktiv pedagogik texnologiyalar</b>	Faol ishtirok va muloqotni talab qiluvchi zamonaviy o‘qitish usullari. Masalan, rolli o‘yinlar (rol-play) yordamida talabalarni bulling holatlariga aralashish bo‘yicha mashq qildirish, keys-stadi (case stady) texnologiyasi orqali real vaziyatlar tahlili, muammoli vaziyatlarni hal etish mashg‘ulotlari tashkil etish mumkin. Bunday interaktiv yondashuv talabalarni nazariy bilimni amaliy vaziyatlarda qo‘llashga o‘rgatadi.

	Xususan, bullingga doir sahnalashtirilgan vaziyatlarda talabalar agressor, jabrlanuvchi yoki kuzatuvchi rolini bajarib, o'z hissiy holatini boshqarish va to'g'ri munosabat bildirishni o'rganadilar.
<b>Modul-trening texnologiyalari</b>	Muayyan mavzu bo'yicha yaxlit modullar shaklida treninglar o'tkazish usuli. Bu yerda bulling profilaktikasi bo'yicha alohida o'quv modullari ishlab chiqilib, pedagogik ta'lim dasturlariga integratsiya qilinadi. Har bir modulda ma'lum jihatiga e'tibor qaratilib (1-modul: bulling tushunchasi va psixologik xususiyatlari; 2-modul: bullingning oldini olish usullari; 3-modul: bullingga qarshi pedagogik diagnostika va h.k.), nazariy ma'lumot berilib, amaliy mashqlar bilan mustahkamlanadi. Modul-trening texnologiyasi bosqichma-bosqich va izchil tayyorgarlik ko'rishga yordam berib, talabalar kompetensiyasini tizimli ravishda rivojlantiradi.
<b>Raqamli simulyatsiyalar</b>	Kompyuter dasturlari yoki virtual reallik (VR) muhitida yaratilgan modellashtirilgan vaziyatlar orqali o'qishni tashkil etish. Bu texnologiya talabalarga real hayotga yaqin sharoitlarda mashq qilish imkonini beradi. Masalan, AQShda ishlab chiqilgan TeachLivE tizimi virtual sinf xonasini simulyatsiya qilib, o'qituvchilarga bulling vaziyatlarini amaliy boshqarishni mashq qildirish uchun qo'llaniladi. Talabalar VR ko'zoynaklari yoki maxsus kompyuter ilovalari yordamida virtual o'quvchilar bilan muloqotga kirishadi – ular orasida tortishuv, boshqa bolaga zug'um o'tkazish kabi holatlar real vaqt rejimida sodir bo'ladi va bo'lajak o'qituvchi shu vaziyatga munosib pedagogik yondashuvni qo'llashga harakat qiladi. Ilg'or tajribalarga ko'ra, bunday raqamli simulyatsiyalar o'qituvchi kadrlarning bullingni erta aniqlash va to'g'ri javob qaytarish ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi.

AKT vositalari talabalarni nazariy bilim bilan qurollantirsa, interaktiv metodlar bu bilimni amaliyotga tatbiq etishni o'rgatadi. Modul-treninglar kompetensiyalarni bosqichma-bosqich mustahkamlashga xizmat qilsa, raqamli simulyatsiyalar olingan bilim va ko'nikmalarni xavfsiz virtual muhitda sinab ko'rish imkonini beradi. Shu tariqa, texnologiyalar kompleksi talabalarda bullingning oldini olishga doir kasbiy kompetensiyalarni yaxlit tarzda rivojlantirishga zamin yaratdi.

Bullingni oldini olishga oid kompetensiyalar (BOOOK) ni shakllantirishda bolalar xulq-atvoridagi og'ishlarni diagnostika qilish faoliyati o'zlashtirishni, kengroq fikrlashni, turli metodlar asosida muammolar yechimini o'rganib olishlariga e'tibor qaratildi. Bulling profilaktikasi bo'yicha talabalarning kompetensiyasini takomillashtirish – bu kompleks yondashuvni talab etuvchi vazifa bo'lgani uchun ilg'or xorijiy tajribalar (KiVa kabi dasturlar, TeachLivE kabi simulyatorlar) va texnologiyalarni puxta integratsiya qilish orqali amalga oshirildi.



**1-rasm. Bulling profilaktikasiga oid texnologiyalarni oʻquv jarayoniga integratsiya qilish boʻyicha takomillashtirilgan pedagogik model**

Talabalar bullingga qarshi kurash boʻyicha zamonaviy usullarni oʻzlashtirsa va maktabda kasbiy faoliyati davomida butun jamoa boʻlib harakat qilinsa, bulling darajasi keskin kamayadi. Shuning uchun ham eng maʼqul yoʻl mahalliy sharoitga mos integratsion texnologik yechimni ishlab chiqildi va 1-rasmda koʻrsatilgandek taqdim etildi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi «**Tajriba-sinov ishlari va ularning ilmiy-statistik tahlili**» deb nomlanadi va unda tajriba-sinov ishlari dasturi: maqsad, metodlar va indikatorlar, tajriba-sinov ishlari natijalari: talabalarda bulling profilaktikasi kompetensiyalarining o'zgarishi sifat va miqdor tahlili amalga oshirilgan.

Tajriba-sinov ishlarini muayyan tartib va dastur asosida tashkil etilishi ushbu jarayonning samaradorligini ta'minladi. Shuning uchun tajriba-sinov ishlari dasturida talabalarda bulling profilaktikasi kompetensiyalarining darajasini tashxis etish mezonlari, ko'rsatkichlari hamda diagnostik vositalari aniqlashtirildi (11-jadvalga qarang).

11-jadval

**Talabalarda bulling profilaktikasi kompetensiyalarining darajasini tashxis etish ko'rsatkichlari va usullari**

<b>Mezonlar</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>Diagnostik vositalar</b>
<b>Bullingni aniqlash kompetensiyasi</b>	O'z-o'zini rivojlantirishga intilish.	O'z-o'ziga baho berish testi
	Bo'lajak o'qituvchining sinfdagi yoki maktab jamoasidagi bulling holatlarini erta tanish va farqlash qobiliyatini ifodalaydi.	Tugallanmagan interorizatsiya metodikasi
<b>Kommunikativ yondashuv kompetensiyasi</b>	Bullingning oldini olish jarayonida pedagogning muloqot qilish va psixologik ta'sir o'tkaza olish mahoratini ifodalaydi.	Refleksiv yo'nalganlikni baholash, Qayta tasavvur qilish o'yini, Men hech qachon ...maganman! metodikasi
<b>Intervensiya ko'nikmalari (aralashuv kompetensiyasi)</b>	Bullingni oidini olishga yo'nalganlik.	O'z-o'zini nazorat qilishning namoyon bo'lishi
	Bullingga oid kompetensiyalarni shaxsiy kasbiy kompetensiyalari takibiga kiritganlik.	Tugallangan interorizatsiya metodikasi
	Bu bulling sodir bo'lganda pedagog sifatida tegishli choralarni ko'ra bilish.	Tegishli choralarni ko'rishda sinergiya
	Bullig vaziyatga aralashish va mojaroni hal etish bo'yicha amaliy ko'nikmalar majmuasidir.	O'z xatti-harakatlari tarkibiga bulling profilaktikasini odat sifatida qabul qilganligining namoyon bo'lishi
<b>Profilaktik (oldini olish) yondashuv kompetensiyasi</b>	Bo'lajak o'qituvchining umuman sinf jamoasida va maktab miqyosida bullingning oldini olish bo'yicha tizimli faoliyatni rejalashtira olishi va amalga oshira olishini ifodalaydi.	Shaxs ijodiy salohiyatini o'z-o'zi tomonidan baholash metodikasi

Obyektiv shart-sharoitlarda so'rovnoma va anketa savollariga javob olish uchun tajriba va nazorat guruhlari bo'yicha jami 344 nafar 3-bosqich pedagogika yo'nalishi talabalari jalb etildi. So'rovnoma va anketa savollariga olingan natijalar quyidagi ko'rinishda umumlashtirildi (12-jadvalga qarang).

**Talabalarning bulling profilaktikasi kompetensiyalariga doir kasbiy faoliyat strategiyalarini tanlash darajalari**

<b>Bulling profilaktikasi kompetensiyalariga doir kasbiy faoliyat strategiyalarini baholash ko'rsatkichlari</b>	<b>Talabalarning natijalari</b>							
	Tajriba guruhi, n=173				Nazorat guruhi, n=171			
	Tajriba avvalida		Tajriba so'ngida		Tajriba avvalida		Tajriba so'ngida	
Bulling profilaktikasiga doir kasbiy faoliyat strategiyalarini to'g'ri tanlay oladi. Bullingga oid kompetensiyalarni yaxshi o'zlashtirgan.	6	35%	67	38,7%	6	35%	5	29%
Bulling profilaktikasiga doir kasbiy faoliyat strategiyalarini tanlay oladi. Biroq bullingga oid kompetentlik to'liq shakllanmagan.	68	39,3%	91	52,6%	67	39,1%	67	39,1%
Bulling profilaktikasiga doir kasbiy faoliyat strategiyalarini aniq tanlay olmaydi. Bullingga oid bilim va malakalarining kasbiy faoliyatida namoyon etish darajasi past.	99	57,2%	15	8,7%	98	57,3%	99	57,8%

12-jadval natijalaridan ma'lum bo'ladiki, amalga oshirilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari asosida tajriba guruhi talabalarning bulling profilaktikasi kompetensiyalariga doir kasbiy faoliyat strategiyalarining to'g'ri tanlay olish ko'nikma va malakalarida sifat o'zgarishlari (35% dan 38,7% darajaga) yuzaga kelgan bo'lib, bulling profilaktikasi kompetensiyalarini o'zlashtirish asosida kasbiy faoliyatida namoyon etish darajasi pastligi 57,2% dan 8,7%ga kamaygan. Nazorat guruhida esa, sifat o'zgarishi (faqat 1% atrofida) sezilarli bo'lmagan holda, kasbiy faoliyat strategiyalarining aniq tanlay olmaslik hamda bulling profilaktikasi kompetensiyalarini o'zlashtirish asosida kasbiy faoliyatida namoyon qilish darajasining pastligi 57,3% dan 57,8% ga o'sib borgan.

Tajriba-sinov ishlari so'ngida tadqiqotga doir empirik materiallarni umumlashtirish asosida mashg'ulotlar jarayonida talabalarning bulling profilaktikasi kompetensiyalari darajasini aniqlashga doir to'rt (yetarli bo'lmagan, vaziyatli, kasbiy yetarli, ijodiy) darajadagi mezonlar bo'yicha yakuniy holati hosil qilindi (13-jadvalga qarang).

## Talabalarining bulling profilaktikasi kompetensiyalari darajasi (foiz hisobida)

Mezonlar	Ko'rsatkichlar	Respondentlar soni n=344					
		yuqori		o'rta		past	
		Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Yetarli bo'lgan(minimal bullingni aniqlash kompetensiyasi mavjud)	Bullingga oid bilimlarga egalik	4	38	39	53	57	9
	O'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishda bullingga oid manbalardan foydalanish	3	37	38	54	59	9
	O'z-o'zini rivojlantirishga intilish.	35	71	41	29	24	0
	Bo'lajak o'qituvchining sinfdagi yoki maktab jamoasidagi bulling holatlarini erta tanish va farqlash qobiliyatini ifodalaydi.	24	68	35	32	41	0
Vaziyatli (kommunikativ yondashuv kompetensiyasi mavjud bo'lgan) daraja	Pedagoglik kasbiga doir bulling profilaktikasini o'ziga xosliklarini bilish	4	38	39	57	59	9
	Kommunikativ madaniyat va tanlangan kasbga nisbatan ijobiy munosabat	40	38	35	54	25	8
	Bullingga oid bilimlar asosida kasbiy faoliyat motivlarining shakllanganligi	3	39	36	53	61	8
	Bullingning oldini olish jarayonida pedagogning muloqot qilish va psixologik ta'sir o'tkaza olish mahorati.	4	40	39	50	59	10
Kasbiy yetarli(aralashuv kompetensiyasi mavjud bo'lgan) daraja	Bullingni oidini olishga yo'nalganlik.	3	41	34	49	63	10
	Bullingga oid kompetensiyalarni shaxsiy kasbiy kompetensiyalari takibiga kiritganlik.	2	38	31	53	67	9
	Bu bulling sodir bo'lganda pedagog sifatida tegishli choralarni ko'ra bilish.	2	39	29	53	69	8
	Bulling vaziyatga aralashish va mojaroni hal etish bo'yicha amaliy ko'nikmalar majmuasidir.	2	38	27	52	71	10
Ijodiy(profilaktik yondashuv kasbiy faoliyatda odatga aylangan) daraja	Bo'lajak o'qituvchining umuman sinf jamoasida va maktab miqyosida bullingning oldini olish bo'yicha tizimli faoliyatni rejalashtira olishi va amalga oshira olishi	2	26	26	48	72	26
	O'z-o'zini nazorat qilish, mustaqil ta'lim olish, o'z-o'zini baholash	4	38	39	53	57	9
	O'quv faoliyatini mustaqil tashkil eta olish malakasiga egalik	4	34	40	47	56	19
	Bullingga oid kompetentlikni faoliyatida namoyon eta olishi	2	24	25	49	73	27

Amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari natijalarini 16-jadval ko'rsatkichlari asosida «Tarbiyaviy faoliyat diagnostikasi va korreksiyasi» fani mashg'ulotlari jarayonida talabalarning bulling profilaktikasi kompetensiyalari darajasini tajriba-sinovgacha bo'lgan davrda o'tkazilgan tajriba va nazorat guruhlaridagi o'zlashtirishlarini umumiy holda statistik tahlil qilamiz. Matematik hisoblash ishlarida tajriba guruhining 173 nafar, nazorat guruhining 171 nafar talabalarning ko'rsatkichlari asos sifatida olindi.


Tajriba avvalidagi tahlil natijalarini umumiy holda quyidagi 14-jadvalda ifodalaymiz.

14-jadval

**Talabalarning bulling profilaktikasi kompetensiyalari darajasi (tajriba avvalida)**

Guruhlar	Talabalar soni	O'zlashtirish darajalari		
		yuqori	o'rta	past
Tajriba guruhi	173	6	68	99
Nazorat guruhi	171	6	67	98

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagrammani chizamiz:



**2-rasm. Talabalarning bulling profilaktikasi kompetensiyalari darajasini aniqlash diagrammasi (tajriba avvalida).**


Tajriba so'nggidagi tahlil natijalarini umumiy holda quyidagi 15-jadvalda ifodalaymiz.

15-jadval

**Talabalarning bulling profilaktikasi kompetensiyalari darajasini aniqlash ko'rsatkichlari (tajriba so'ngida)**

Guruhlar	Talabalar soni	O'zlashtirish darajalari		
		yuqori	o'rta	past
Tajriba guruhi	173	67	91	15
Nazorat guruhi	171	6	67	98

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagrammani chizamiz:



### 3-rasm. Talabalarning bulling profilaktikasi kompetensiyalari darajasini aniqlash diagrammasi (tajriba so'ngida)

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezonini birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezonini noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhidagi o'zlashtirish nazorat guruhidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan. Tadqiqot natijalari talabalarning bulling profilaktikasi kompetensiyalari darajalarini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari samarador ekanligini tasdiqlaydi.

## XULOSA

Pedagogika yo'nalishi talabalarini maktab muhitida bullingni oldini olish texnologiyasiga oid kompetensiyalarini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Pedagogika yo'nalishi talabalarida maktab muhitida bullingni oldini olish texnologiyasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirishni ilmiy jihatdan asoslash hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish mazkur tadqiqotning muhim bosqichidir.

2. Xalqaro ilmiy tadqiqotlar va amaliy dasturlar tajribasi integratsiya qilinishi, shu bilan birga uning O'zbekiston ta'lim tizimi va milliy kontekstga moslashuvi muhim ahamiyatga ega.

3. Bullingning oldini olish bo'yicha dunyoda mavjud yondashuvlarda jamoaviy hamkorlik va maktabda birgalikda harakat qilish prinsipi ko'zda tutilgan (masalan, tavsiyalarda psixolog, sinf rahbari va ma'muriyat hamkorligi alohida qayd etiladi).

4. Finlyandiyada ishlab chiqilgan KiVa dasturi tajribasi bullingga qarshi kurashda empatiya va hamdardlik tuyg'usini shakllantirishga alohida urg'u beradi. Bizning trening mashg'ulotlarimiz ham xuddi shunga muvofiq ravishda, talabalar va ularning bo'lajak tarbiyalanuvchilarida empatik tushunishni rivojlantirishga qaratilgan.

5. Xitoy tajribasidan aytish mumkinki, maxsus bulling profilaktikasi treningi bo'lajak o'qituvchilarning o'ziga ishonchi (antibulling self-efficacy) darajasini sezilarli darajada oshiradi. Bizning model doirasidagi treninglar ham xuddi shu o'ziga ishonchni shakllantirishni ko'zda tutadi, chunki o'ziga ishonchi yuqori bo'lgan o'qituvchi bullingga aralashishdan cho'chimaydi va samaraliroq choralar ko'ra oladi.

6. AQSh va Yevropa mamlakatlarida pedagog kadrlar tayyorlashda so'nggi yillarda ijtimoiy-emotsional o'qituvchilik kompetensiyalariga e'tibor oshgan. O'qituvchilarning kasbiy farovonligi va qoniqishi ham sinfda bulling darajasiga ta'sir ko'rsatadi, ishidan mamnun va psixologik jihatdan barqaror pedagoglar o'quvchilarga ijobiyroq muhit yaratishi va zo'ravonlikni kamaytirishi kuzatilgan. Shu bois talabalar shaxsiy rivojlanishi, stressni yengish, konfliktlarni tinch hal qilish kabi jihatlarni ham qamrab olinishi muhim ahamiyatga ega. Bu kelajakda ular kasbiy faoliyatda stress holatlarga yaxshi chidaydigan, qoniqib ishlaydigan mutaxassis bo'lishiga ko'maklashadi va bilvosita bullingni kamaytirishga xizmat qiladi.

7. 2024-yil 14-noyabrda qabul qilingan «Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida»gi Qonunning mazmuni «Bulling profilaktikasiga oid texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha takomillashtirilgan pedagogik model» mazmuniga integratsiya qilindi, talabalarga ushbu qonunning mazmun-mohiyati o'rgatish, bullingga qarshi kurash, huquqiy javobgarlik va burch hissini tarbiyalaydi.

8. Mahalliy ilmiy tadqiqotlar natijalarini e'tiborga olish maktabda xavfsiz psixologik muhit va bolalar rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, bizning «Bulling profilaktikasiga oid texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha takomillashtirilgan pedagogik model»imiz ham bullingning oldini olish orqali maktabda xavfsiz muhit yaratishga xizmat qiladi, o'quvchilarning har tomonlama sog'lom taraqqiyoti uchun zamin yaratilishini ta'minlaydi.

9. Bulling profilaktikasi bo'yicha kompetensiyani rivojlantirishni kognitiv (bilim), psixomotor (amaliy) va affektiv (munosabat) komponentlar, kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari (integrallik, kontekstlilik, amaliy yo'naltirilganlik) ko'zlangan natijani beradi.

10. Talabalar bullingni oldini olish xatti-harakatlarini egallashi uchun ularga ijtimoiy rol o'yinlari va real vaziyatlar modellashtirish, trener – o'qituvchilarning o'zi ham namuna ko'rsatishi o'ziga ishonch va qobiliyatlarni shakllantiradi.

11. Bulling sodir bo'lishiga ko'pincha hamdardlik hissining sustligi sabab bo'lishi tadqiqotlarda qayd etilgan. Shunga ko'ra, mashg'ulotlarda talabalarda empatiya hissini uyg'otish uchun maxsus texnikalar qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

12. Ta'lim jarayoni to'g'ri loyihalashtirilib, talabaning faolligi ta'minlansa, fikr-mulohazasi olinib borsa, o'zlashtirish samarasi keskin oshadi. Interaktiv metodlar va bosqichma-bosqich aloqa (feedback) ham xuddi shu samarani beradi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilar endigina kasbiy shakllanish poydevorini

qo‘yayotganini hisobga olib, ularga oddiy va tushunarli usullarni birinchi navbatda o‘rgatish, keyin murakkablariga o‘tish zarur.

**Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:**

1. Pedagogika yo‘nalishi bakalavriat va magistratura dasturlariga «Maktabda bullingning oldini olish texnologiyalari» nomli maxsus tanlov (yoki majburiy) fanini kiritish maqsadga muvofiq. Ushbu fanning dasturi mazkur tadqiqot modeli mazmuniga tayangan holda ishlab chiqilishi mumkin. Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilar bullingga qarshi kurash asoslarini tizimli o‘rganib chiqadilar.

2. Pedagogika yo‘nalishida ta‘lim oluvchi magistrantlar va izlanuvchilarni bulling profilaktikasi mavzusida ilmiy izlanishlar olib borishga jalb etish kerak. Masalan, bulling bo‘yicha mahalliy statistik tahlillar, maktablarda kuzatuv tadqiqotlari, yangi intervensiya usullarini sinab ko‘rish kabi ilmiy ishlar muntazam olib borilsa, ilmiy asoslar kuchayadi.

3. Har bir ta‘lim muassasasida bullingning oldini olish va unga munosabat bo‘yicha aniq reglament bo‘lishi lozim (masalan, «Maktabda tengdoshlar o‘rtasidagi zo‘ravonlikka qarshi siyosat» hujjati). Ushbu hujjatda o‘qituvchining vazifalari, choralari, javobgarliklar belgilab qo‘yilishi kerak. O‘qituvchi tashabbusi juda muhim, ammo maktab rahbariyati va jamoasi ko‘magi bo‘lmasa, yakka o‘qituvchi harakatlari samarasiz bo‘lishi mumkin.

4. Maktab psixologi o‘quvchilar orasidagi bulling holatlarini muntazam monitoring qilib borishi, xavf ostidagi bolalar bilan ishlashi lozim. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning maktab psixologi bilan hamkorlik qila olish ko‘nikmasini amaliyotda ham yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi (masalan, sinfda muammo chiqqanda o‘qituvchi darhol psixolog bilan maslahatlashadi va birgalikda harakat qiladi).

5. Maktabda faoliyat ko‘rsatayotgan barcha o‘qituvchilar uchun ham vaqti-vaqti bilan bulling profilaktikasi bo‘yicha seminar-treninglar o‘tkazilishi kerak. Yangi ishga kirgan yosh mutaxassislar maktab muhitida bullingga duch kelsa, ko‘pincha nima qilishni bilmay qolishi mumkin, shuning uchun rahbariyat ularni maxsus tayyorlashi zarur.

6. Sinf rahbarlari uchun «Kelajak soati» tarbiyaviy soat mavzulari taqdim etilgan bo‘lib ushbu mavzular orasida «Ta‘lim va tarbiyaning inson kamolotidagi o‘rni», «Xulq tushunchasi», «Yaxshi va yomon xulqlar», «Favqulodda holatlarda to‘g‘ri harakat qilish ko‘nikmalari» kabi mavzular mavjud. Lekin bulling bilan bog‘liq elementlar unchalik ko‘p emas. Shuning uchun har bir sinf rahbari o‘z sinfida bullingning oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy soatlar rejasini tuzishi lozim. Masalan, «Do‘stlik va hurmat» mavzusida dars, «Sinfidoshlar o‘rtasida nizolarni hal qilish» mavzusida treninglar, suhbatlar va hokazo. Bu ishlarda ota-onalarni ham jalb etish kerak. Zero, bulling ko‘pincha oilada zo‘ravonlik ko‘rgan bolalarda kuzatiladi shu bois ota-onalar bilan profilaktik muloqotlar (ma‘ruzalar, yig‘ilishlarda tushuntirish) o‘tkazish tavsiya etiladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА  
PHD.03/27.09.2024.PED.184.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ  
СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАМАНГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

---

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
ИНСТИТУТ**

**ОРИББОЕВА ДИЛАФРУЗ ДАДАМИРЗАЕВНА**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ  
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ ПО ТЕХНОЛОГИИ  
ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ БУЛЛИНГА В ШКОЛЬНОЙ СРЕДЕ**

**13.00.02- Теория и методика образования и воспитания**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора педагогических наук (DSc)**

**Наманган – 2025**

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером №-B2025.3.DSc/Ped1254

Диссертация выполнена в Наманганском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации выполнен на трех (узбекский, русский, английский(резюме)) языках, опубликован на веб-сайте Научного совета (www.namspi.uz) также размещен на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

**Научный консультант:**

**Абдуллаев Сафибулло Хабибуллаевич**  
доктор педагогических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Абдуллаева Барно Сайфуддиновна**  
доктор психологических наук, профессор

**Азимова Зиёда Эргашевна**  
доктор педагогических наук, профессор

**Ханбабаев Хакимжон Икромович**  
доктор педагогических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Чирчикский государственный педагогический университет**

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета PhD.03/27.09.2024.Ped.184.01 при Наманганском государственном педагогическом институте «13» 12 2025 г. в 9:00 часов. (Адрес: 160119, город Наманган, улица Уйчи 316-дом. Тел.: (998) 69 211-11-69; факс: (998) 69 211-11-69; e-mail: info@namspi.uz.)

Ознакомится с диссертацией можно в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного педагогического института (регистрационный номер 083). (Адрес: 160119, город Наманган, улица Уйчи 316-дом. Тел.: (998) 69 211-11-69; факс: (998) 69 211-11-69)

Автореферат диссертации распространен « 9 » 12 2025- года.  
(протокол реестра под номером 25 от « 9 » 12 2025-года.



*[Signature]*  
**М.Р.Кодирхонов**  
председатель Разового Научного совета  
по присуждению ученых степеней,  
д.х.н., доцент

*[Signature]*  
**С.Х.Муталов**  
ученый секретарь Разового Научного  
совета по присуждению ученых  
степеней, д.ф.п.н.(PhD), доцент

*[Signature]*  
**Х.Ё.Нажмиддинова**  
председатель Разового Научного  
семинара при Разовом Научном совете  
по присуждению ученых степеней,  
д.п.н. (DSc), профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Во всем мире, согласно проводимым научным исследованиям, национальными образовательными стратегиями и рекомендациями международных организаций, случаи буллинга, такие как психологическое давление, социальная изоляция, унижение и кибернасилие, возникающие в школьной среде, оказывают негативное влияние не только на психическое здоровье и уровень успеваемости учащихся, но и на моральный климат общества в целом (Olweus; Smith, UNESCO), в результате в 2019 году на собрании, в котором приняли участие 193 государств-членов ЮНЕСКО, было принято решение отмечать первый четверг ноября как «Международный день борьбы с насилием в школе и в Интернете»<sup>18</sup>. Данное мероприятие планируется проводить ежегодно, начиная с 2020 года, с целью предотвращения и пресечения насилия в системе образования. В образовательных системах зарубежных стран подходы к противодействию буллингу реализуются на основе комплексных мер, таких как прочное законодательство, методические программы, психологические услуги, обеспечение цифровой безопасности. Путем глубокого изучения передового опыта и адаптации его к национальной системе образования расширяются возможности обеспечения психологического благополучия и спокойствия, благосостояния и стабильности субъектов образования, а также совершенствования педагогического процесса в соответствии с современными требованиями. В связи с этим, актуальное значение приобретает разработка механизмов предотвращения буллинга в группах и между представителями различных социальных групп, а также эффективного внедрения инновационных технологий в образовательный процесс.

В мире широко проводятся научные исследования, направленные на изучение роли и значения нравственного воспитания в образовательном процессе. Современные педагогические подходы служат расширению возможностей использования цифровых технологий при совершенствовании нравственных ценностей. Согласно статистическим данным, представленным в докладе ЮНЕСКО о случаях буллинга в отношении детей, каждый третий учащийся подвергается различным видам насилия<sup>19</sup>. Несмотря на важность изучения причин и последствий буллинга среди несовершеннолетних, в педагогике до сих пор отсутствует единый подход к решению данной проблемы. В связи с этим, разрабатываются методы, позволяющие систематически предотвращать распространение данного негативного явления. Одним из актуальных вопросов сегодняшнего дня является предотвращение буллинга среди молодежи путем гармонизации национальных и общечеловеческих ценностей в системе образования и совершенствование педагогического процесса на научной основе.

---

<sup>18</sup> <https://iite.unesco.org/ru/news/den-protiv-nasiliya-kiberbulling-unesco-vk/>

<sup>19</sup> <https://kiberbulling.net/>

В нашей стране особое внимание уделяется развитию духовно-нравственного воспитания молодежи и повышению чувства уважения к национальным и общечеловеческим ценностям. 28 января 2022 года на видеоселекторном совещании по вопросам развития школьного образования под председательством Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева были определены «Приоритетные задачи по развитию школьного образования»<sup>20</sup>.

Также, в пункте 2 статьи 48 Закона Республики Узбекистан «Об образовании» от 23 сентября 2020 года №-ЗРУ-637<sup>21</sup> указано, что другие участники образовательного процесса «не должны применять физическое и (или) психологическое насилие в отношении других участников образовательного процесса и не должны препятствовать выполнению ими своих обязанностей». Поэтому, наряду с углубленным изучением национальных традиций и принципов народной педагогики, важное значение приобретает изучение и внедрение передового международного опыта, а также в качестве актуальной научной проблемы рассматривается совершенствование компетенций студентов педагогического направления по технологии предотвращения буллинга в школьной среде.

В Республике Узбекистан принят ряд нормативно-правовых документов, направленных на совершенствование системы образования и развитие компетенций студентов по технологии предотвращения буллинга в школьной среде. В частности, Законы Республики Узбекистан: от 23 сентября 2020 года №-ЗРУ-637; от 14 ноября 2024 года №-ЗРУ-996 «О защите детей от всех форм насилия», а также указы Президента Республики Узбекистан: от 8 октября 2019 года №-УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года»; от 6 ноября 2020 года №-УП-6108 «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, а также науки в новый период развития Узбекистана»; от 28 января 2022 года №-УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», определившие приоритетные направления в данной области. Исследования, проводимые в рамках реализации задач, предусмотренных в данных нормативно-правовых документах, служат совершенствованию компетенций студентов по технологии предотвращения буллинга в школьной среде.

**Соответствие исследования приоритетам развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

---

<sup>20</sup> <https://yuz.uz/news/maktab-talimini-rivojlantirish-boyicha-ustuvor-vazifalar-belgilandi>

<sup>21</sup> <https://lex.uz/docs/5013007>

## **Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации<sup>22</sup>.**

Научные исследования, направленные на изучение безопасной среды в школе как фактора развития личности детей, проводятся ведущими высшими учебными заведениями и научными центрами мира, в том числе Гарвардским университетом (США), Венским университетом (Австрия), университетом Кордова (Аргентина), Университетом Висконсин-Милоуки (США), Санкт-Петербургским государственным университетом (Россия), Институтом социологии Российской академии наук (Россия), Калифорнийским университетом (США), Университетом Лидс (Великобритания), Университетом Кент (Великобритания), Университетом Шеффилда (Великобритания), Университетом Гронингена (Нидерланды) и Американской психологической ассоциацией (США).

В образовательной среде насилие и агрессия могут проявляться в виде буллинга. Буллинг и виктимизация (процесс превращения в жертву и его результат) в школах признаны факторами, негативно влияющими на психологическое, социальное и даже физическое развитие детей. Е.Роланд (1989) описывает «буллинг-систему», как социальную систему, включающую в себя насильников (преследователей, хулиганов), их жертв и свидетелей (наблюдателей). Каждый участник системы имеет свое личное мнение и точку зрения в данном процессе.

В современной психологии проблему насилия развивают такие исследователи, как Л.С.Алексеева, И.А.Баева, Е.В.Бурминстрова, Е.Ф.Быковская, Е.В.Гребенкин, Н.О.Зиновьева, Е.Б.Лактионова, Н.Ф.Михайлова, Д.Пстрог.

Основная часть исследований, проведенных с целью изучения буллинга, рассматривает данную проблему частично, и в большинстве исследует лишь виды буллинга, не обращая особого внимания на факторы, вызывающие буллинг, а также на роль и поведение личности в процессе насилия. Следует отметить, что в научной литературе недостаточно изложены специальные методы профилактики буллинга, информация о многогранном влиянии семьи, школы и личности на возникновение данного явления. Изучение данной проблемы в будущем будет способствовать снижению проявлений буллинга среди подростков, а также позволит учителям, социальным работникам, психологам и родителям использовать полученные результаты в своей социальной и профессиональной деятельности.

**Степень изученности проблемы.** Мыслители Востока выдвигали

---

<sup>22</sup> Диссертация мавзусига доир хорижий таджикотлар тахлили ЮНЕСКО ташкилоти (<https://iite.unesco.org/ru/news/den-protiv-nasiliya-kiberbulling-unesco-vk/>), Society for Health Psychology of American Psychological Association (URL: <https://societyforhealthpsychology.org>) маълумотлари асосида амалга оширилди. Хавфсизлик психологиясига доир нашрлар тахлили етакчи референт даврий нашрлар базаларида амалга оширилган, шу жумладан: Психологик нашрлар портали (URL: <http://psyjournals.ru>), Америка психологик ассоциациясининг PsycINFO психология бўйича маълумотлар базаси (URL: <https://www.apa.org/pubs/databases/psycinfo/index.aspx>), АҚШ Миллий тиббиёт кутубхонасининг матн маълумотлари базаси (URL: <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pubmed>), шунингдек, Европа жамоатчилигининг саломатлик психологияси даврий нашрларида жойлашган (URL: <http://www.ehps.net>).

важные научно-теоретические взгляды на воспитание и его роль в развитии общества, их идеи и по сей день сохранили свою актуальность. Такие ученые, как Абу Наср Фараби, Абу Райхан Беруни, Абу Али ибн Сина, Махмуд Кашгари, Джалалиддин Руми, Алишер Навои, Захириддин Мухаммад Бабур, подчеркивали решающее значение воспитания. Кроме этого, такие просветители, как Абдулла Авлони, Махмудходжа Бехбуди, Исхокхон Ибрат, Абдурауф Фитрат, Мунавваркори Абдурашидхонов, обосновали необходимость гармоничного воспитания молодого поколения с национальной самобытностью, духовными ценностями и современными образовательными требованиями.

